

QULUPNAY ZARARKUNANDALARIGA QARShI BIOLOGIK KURASH CHORALARI

Lutfullayev Hidoyatulloxon Xayrullaxon o‘g‘li

Mamanazarova Zulhumorxon Zoxidjon qizi

Mardonova Maxfuzaxon Muxtorjon qizi

Mashrabov Ranziddin Mamazarif o‘g‘li

Annotatsiya: Bizning jannat -makon yurtimizda o‘simliklar dunyosi juda boy. Jumladan mevalarga ham boy o‘lka hisoblanadi. Ushbu tezisda qulpunay zararkunandalari va ularga mikrobiologik preparatlardan foydalanib qarshi kurashish choralarini ko‘rish, shu bilan birga qulpunayning inson organizimiga naqadar foydalilagini ham ko‘rish mumkin.

Kalit so‘zlar: Qulupnay bargxo‘ri (*Galerucella tenella L.*), Qulupnay uzunburuni (*Anthonomus terreus Gull.*), imago, lichinka, g‘unbak, pestidsid.

Kirish: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘laqonli ta’minalashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 9-sentabrdagi PQ-4821-son qarorining ijrosini ta’minalash hamda oziq-ovqat sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha yangi tashkil etilayotgan istiqbolli loyihalarni yanada qo‘llab-quvvatlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qildi. Qonun doirasida joylarda amaliy ishlar olib borilmoqda.

Qulupnayning foydali hususiyatlari: Qulupnaylarda 5-12 foiz uglevod (glyukoza, fruktoza, saxaroza), limon va olma kislotasi, turli modda va fenol birikmalar bor. Vitaminlardan esa A, S, V va minerallardan: temir, asal, kobalt, marganets, molibden va fтор mayjud.

Bilamizki, deyarli barcha vitaminlar juda nozik bo‘ladi va qayta ishslash jarayonida ular yo‘q bo‘lib ketadi. Ammo qulupnay tarkibidagi vitaminlar qayta ishslash jarayonida ham yo‘q bo‘lib ketmaydi va kishi organizmiga foydasi tegadi. Agar vazn oshib ketishidan cho‘chimasangiz, unda qulupnayni qaymoq, smetana

yoki tvorog bilan birga iste'mol qilsangiz bo'ladi. Sut mahsulotlaridagi yog'lar ichak devorlariga birikadi va qulupnayning bezovta qiluvchi holatlarining oldini oladi. Agar kishida ichak bezovtalanishi bo'lmasa, qulupnayni yangi sut bilan iste'mol qilsa ham bo'ladi. Ushbu mevani boshqa taomlar bilan aralashtirmay, birinchi yoki ikkinchi ovqatdan so'ngina iste'mol qiling, chunki u oshqozon ichida bijg'ish xususiyatiga ega. O'zi umuman olganda, barcha mevalarda ana shunday xususiyat mavjud. Shuning uchun ularni hech qaysi taom bilan aralashtirib yemaslik tavsiya etiladi. Kimda-kim o'z immunitetini kuchaytirishni istasa bunga qulupnay yordam beradi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, qulupnay kashanda va boshqa zararli odati bor kishilarning turli kasalliklarga chalinish xavfini pasaytirar ekan. Bundan tashqari, qulupnaylarda yana bir o'ziga xos xususiyat borki, ular kam kaloriyalı meva hisoblanadi. 100 gramm qulupnayda 30 kkal kaloriya mavjud. Bu mevada saxaroza ko'p, ammo fruktoza anchayin yetarli. Yog' umuman yo'q, oqsillar ko'p. Bu parhezga amal qiluvchilar uchun juda yaxshi. Qulupnayning kosmetika sohasida foydaliligi ancha oldin aytib o'tilgan. Yangi qulupnay yoki uning sharbati ayrim kosmetik vositalardan ko'ra yaxshiroq ta'sir etadi: teridagi ajinlarni yo'qotishda va terining ozuqa olishida yuqori samara beradi. Shu bilan birga yuzdagagi dog'lar va sepkillarga qarshi kurasha oladi. Undan yuz uchun ishlatiladigan niqobni oddiy uy sharoitida ham tayyorlab olsa bo'ladi. Qulupnay ichaklarni tozalashda, jigar va buyrakning yaxshi ishlashiga, qabziyat va anemiyaga qarshi, shuningdek, buqoqning oldini olishda qo'l keladigan foydali mevadir.

Qulupnay bargxo'ri: Qozog'iston hamda o'zbekistonda Toshkent viloyatining tog' bag'riga yaqin joylashgan tumanlarida uchraydi. Qong'izlar qulupnay paykallarini chetlaridagi o'simlik qoldiqlari ostida qishlaydi. Bahorda aprel oylarida ug'onib, qulupnay o'simliklariga yopiriladi, barglarni kemirib teshib tashlaydi. Aprelning ikkinchi uchinchi o'n kunliklarida tuxum qo'yishga kirishadi. Tuxumlarni asosan 4-5tadan qilib bargning ostiga qo'yadi. Zararkunanda qiyg'oz ko'paygan yillari xar bir o'simlikka 35-40 tadan tuxum to'g'ri keladi. Bahor faslida 10-12 kundan keyin lichinkalar ochib chiqadi va

o'simlikka tarqab oz zararini beradi .Ularbarg skeletini qoldirib shikastlaydi,20-25 kundan keyin yerga tushib g'umbakka aylanadi va yana 10-12 kunda keyin yana yangi bo'g'in qong'izlari paydo bo'ladi. O'zbekistonda 2ta bo'g'in berib rivojlanadi.

Qulupnay uzunburuni :O'zbekistonning Toshkent viloyatining Qibray va Bo'stonlik tumani xo'jaliklarida bu hashorot (1998 yili) ko'plab urchib qulupnay xosilini jiddiy zarar yetkazgan.Qulupnay shonalar boshtagan davrda urchib ,har bir shonaning yonidan kemirib tayyorlangan teshikka odatda bittadan tuxum qo'yadi (bu may iyul oylariga to'g'ri keladi).Tuxum qo'yilgan teshikchani berkitgach shona bandini qisman kemirib qo'yadi.Buning natijasida 3-4keyin shona qurib sinib tushadi .licginkalik davri shona ichida o'rtacha 16-kun davom etadi ,so'ng g'umbaklanib 4-7 kundan keyin qo'ng'izga aylanadi va tashqariga uchib chiqadi. Yosh qo'ng'izlar qulupnay barglari bilan bir muddat o'ziqlanadilar keyin esa qishlash joylariga kirib ketadilar.Buzararkunanda bir yilda faqat bitta bo'g'in berib ko'payadi.

Qulupnay zarakunandalariga qarshi fitoverm bialogik preparatini qo'llash.

Fitoverm o'simlikning barglari va poyalarida yaxshi va uzoq vaqt turishi uchun maxsus yopishtiruvchi vositalardan foydalanish kerak. Mahsulotni suv bilan suyultirilgandan so'ng darhol foydalanish kerak. Preparatning eng samarali ta'siri issiq havoda. Biologik mahsulotning bir nechta turlari mavjud — bu fitoverm KE va fitoverm M. Fitoverm KE ochiq maydonda joylashgan gullarni o'simliklar uchun mo'ljallangan. Fitoverm m himoyalangan tuproq va yopiq o'simliklar uchun mo'ljallangan.

Fitoverm quydagicha ishlaydi: insektitsid biologik preparat bo'lgani uchun uning tarkibida tuproqda o'sadigan qo'ziqorin metaplazmalari kabi faol komponent mavjud. Metaplazmadan avorsektin C ajralib chiqadi, bu fitoverm uchun asosni taqdim etadi. Qayta ishlangan o'simlikning poyalari va barglarini iste'mol qiladigan zararkunandalar yutishni tugatgandan so'ng, preparat tanaga oziq-ovqat deb ataladigan narsa bilan birga kiradi.

U hujayralar orqali parazitlarning ovqat hazm qilish tizimiga kiradi va ulardan oziq-ovqat olish qobiliyati yo'qoladi, shuningdek hasharotlar immobilizatsiya qilinadi. Biologik vosita faqat 12 soatdan keyin ishlay boshlaydi. Biologik vosita boshlanganidan uch kun o'tgach, parazit o'ladi. Yopiq o'simliklarga kelsak, uyda fitoverm preparatining ta'siri biroz sekinroq va hasharotlar faqat 5-7 kundan keyin butunlay yo'q qilinadi. Preparatning zararkunandalarning ovqat hazm qilish tizimiga ta'siri tufayli lichinkalar o'lmaydi va shuning uchun hasharotlar zararkunandalarini to'liq yo'q qilish uchun kamida 3-4 ta davolash kerak bo'ladi.

Agar o'simlikning barglari va moyalarida tirtillar, oq dog'lar, barg qurtlari paydo bo'lsa, butalar va mevali daraxtlarni buzadigan amallar shishasi bilan qo'llash kerak. Butalar va daraxt tojlarini mavsumda kamida 2 marta qo'llash kerak. Fitoverm eritmasini tayyorlash uchun 1 mg preparatni 1 litr suv bilan aralashtirish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

- 1) Sh.T.Xo'jaev O'simliklarni zararkunandalardan uyg'unlashgan ximoya qilish, agrotoksikologiya asoslar.
- 2) Tolibjonov Oxunjon Odiljon o'g'li, Muydinova Kamola Baxtiyor qizi, ANORNING FOYDALI XUSUSIYATLARI VA UNI UZOQ VAQT DAVOMIDA SIFATLI SAQLASH SIRLARI., Tadqiqotlar: Vol. 9 No. 1 (2023):"TADQIQOTLAR jahon ilmiy-metodik jurnali| 9-son| 1-qism"
- 3) Tolibjonov Oxunjon Odiljon o'g'li, Sharofiddinnov Bekzodjon Dilshodjon o'g'li, MIKROBIOLOGIK PREPARATLARININGNING QISHLOQ XO 'JALIGIDAGI AXAMIYATI, Tadqiqotlar: Vol. 9 No. 1 (2023):"TADQIQOTLAR jahon ilmiy-metodik jurnali| 9-son| 1-qism"
- 4) Tolibjonov Oxunjon Odiljon o'g'li, Sharofiddinnov Bekzodjon Dilshodjon o'g'li, MIKROBIOLOGIK PREPARATLARININGNING QISHLOQ XO 'JALIGIDAGI AXAMIYATI, Tadqiqotlar: Vol. 9 No. 1 (2023):"TADQIQOTLAR jahon ilmiy-metodik jurnali| 9-son| 1-qism"